



## **EPIDEYKTIK NUTQIY JANR TURLARI VA TASNIFI MASALALARI**

*Xodjayeva D.Sh.*  
*Qo'qon DPI rektori*

**Tayanch so'zlar:** epideyktik nutqiy janr, uslubiy xoslanish, kompozitsion qurilish, epideyktik nutqqa xos jamoaviylik va tantanavorlilik, tilshunoslik.

**Ключевые слова:** жанр эпидейктической речи, стилистические особенности, композиционное построение, собирательность и торжественность, свойственные эпидейктической речи, лингвистика.

**Key words:** epideictic speech genre, stylistic features, compositional construction, collectivity and solemnity characteristic of epideictic speech, linguistics.

**Резюме:**

Mazkur maqolada epideyktik nutqiy janrning turlari, ularning lingvistik hususiyatlari hamda tasnifi hususida fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada o'zbek tilshunosligida epideyktik nutqiy janr turlari va turkum xususiyatlari, ularning matnii kompozitsion qurilishi, uslubiy xoslanishi kabi masalalar ham bayon etilgan.

**Резюме:**

В данной статье рассматриваются виды эпидейктического речевого жанра, их языковые особенности и классификация. Также в статье описаны типы и категории эпидейктических речевых жанров в узбекском языкознании, их текстологическое композиционное построение и стилистические особенности.

**Summary:**

This article discusses the types of epideictic speech genre, their linguistic features and classification. Also, the article describes the types and categories of epideictic speech genres in Uzbek linguistics, their textual compositional construction, and stylistic features.

Kirish. XXI asrga kelib tilshunoslar e'tiborining nutqqa qaratilishi til tizimidagi nutqiy janrlarning alohida turlari va turkum xususiyatlarini ochib berishda asosiy turtki bo'ldi. Bugungi kunda til tizimidagi nutqiy janrlarni aniqlash yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda nutqiy janrlarning alohida turlari va tasnif guruhlarini belgilash masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Chunki til tizimidagi nutqiy janrlar turli belgi xususiyatlariga ko'ra bir-birlaridan tubdan farqlanadi. Bunday belgi xususiyatli nutqiy janrlarga fatik va fatik bo'lmagan, birlamchi va ikkilamchi nutqiy janrlar, sodda va murakkab nutqiy




janrlar kabi turkum xususiyatli nutqiy janrlarni misol keltirish mumkin. Zotan nutqiy janrlarni turkum xususiyatlariga ko'ra farqlash masalasi alohida nutqiy janr turlarini muayyan belgi xususiyatiga ko'ra umumlashtirish, birlashtirish masalasi bilan ham bog'lanadi.

Shuni aytish kerakki, Shu kunga qadar o'zbek tilshunosligida epideyktik nutqiy janr turlari va turkum xususiyatlari, ularning matniy kompozitsion qurilishi, uslubiy xoslanishi kabi masalalar maxsus tadqiqot ob'ekti bo'lgan emas. Zero, epideyktik xususiyatli nutqiy janrlar o'zbek tili tizimining muayyan qismini tashkil qiladi. Ushbu maqolamizda epideyktik nutqiy janr turlari va uning tasnifi masalasiga alohida to'htalmoqchimiz.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Yunon foylasuflari Aristotel va Gorgiyning ilmiy g'oyasi asosida farqlanuvchi epideyktik nutqning o'ziga xosligi shundaki, epideyktik nutq bu muayyan jamoa ichida tantanali tashkillashtirilgan, adresant tomonidan muayyan shaxsni maqtash yoki uning kamchiligini ko'rsatishga mo'ljallangan nutqdir.[1.B.246] Shu sababli ham epideyktik nutqni matniy voqe'lantiruvchi muayyan nutqiy aktlar va nutqiy janrlar mazmunan va shaklan epideyktik nutqqa xos jamoaviylik va tantanavorlilik, rituallik, jamoaga xoslangan etiket qoidalari kabi bir qator pragmatik xususiyatlarni o'zida jamlaydi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

Ko'rinadiki, epideyktik nutq standartlari asosida epideyktik nutqiy aktlar va epideyktik nutqiy janrlar hosil bo'ladi. Ushbu nutqiy butunliklarning pragmatik mazmuni shaxsni maqtash yoki kamchiligini ko'rsatishga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanib, jamoa tarkibida hosil bo'layotganligi sababli ham o'ziga xos tantanavorlilik, rituallik ruhidagi nutqiy vaziyatni hosil qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Epideyktik xususiyatli nutqiy janrlarni, eng avvalo, shaxsni maqtash yoki kamchiligini ko'rsatishga mo'ljallanganligiga qarab, ijobiy va salbiy epideyktik nutqiy janrlarga ajratish mumkin. Ijobiy, ya'ni





maqtoiv xususiyatli epideyktik nutqiy janrlarga *qadah so'zi, tabrik, tilak, duo, yaxshi niyat tilash, ta'ziya, hamdardlik bildirish, madh etish, ulug'lash, tovba qilish, xotiralash kabilarni, salbiy, ya'ni kamchilikni ko'rsatuvchi epideyktik nutqiy janrlarga bo'hton, tuhmat, mish-mish, qarg'ash, qarg'anish, ayblash, qoralash, la'natlash* kabilarni kiritish mumkin. Buni quyidagicha ifodalaymiz:




Ijobiy epideyktik nutqiy janrlar rasmiylik va norasmiylik xususiyatiga ega. Masalan, rasmiy tabrik: *Avvalambor, dunyodagi eng ulug' va sharafli kasb egasi bo'lgan siz, azizlarni bugungi qutlug' ayyom - O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin qalbindan tabriklab, barchangizga o'zimning ezgu tilaklarimni izhor etaman.*[2.B.592]

Shuni aytish kerakki, ushbu tadqiqotimizda norasmiy epideyktik nutqiy janrlar deyilganda rasmiy jamoatchilik asosida tashkillanadigan nutqiy vaziyat va ularda qo'llaniladigan nutqiy janrlar nazarda tutiladi. Aytish kerakki, o'zbek lingvomadaniyatida jamoatchilik mahalla nomi bilan yuritilib, mahalla deyilganda yuridik maqomdagi kichik ma'muriy xududga ega maxsus jamiyat tuzilmasi tushuniladi.[3] Jamoatchilik asosida yuzaga keladigan nutqiy vaziyatlarda adresant va adresatlar turli ijtimoiy kelib chiqishga ega kishilar bo'lganligi bois rasmiy jamoatchilik uslubi hosil bo'ladi. Bunda rasmiy va so'zlashuv uslubining qarishiq shakllari qo'llanilishi epideyktik nutqiy janrlarda norasmiylik xususiyatini keltirib chiqaradi. Jamoatchilik asosida hosil bo'luvchi epideyktik nutqiy janrlar jamoaviy nutqiy vaziyatni hosil qilishligi bilan xarakterlanadi. Bunday turlarga kichik jamoaviy guruh tarkibida qo'llaniluvchi nutqiy janrlarni ham kiritib tadqiq qilish mumkin. Masalan, dafn marosimidagi nutqlar, xotiralash kechalaridagi nutqlar, kollektiv jamoadagi tashkil qilinadigan kechalar, o'tirishlar, muayyan maqsad bilan uzoq safarga



otlanganlarni kuzatish (xojiga, armiyaga, o'qishga, uzoq safarga kabi), maktab jamoasining ichki tadbirlari, maktabdagi dars jarayoni bilan bog'liq maqtoov yoki kamchilikni ko'rsatuvchi epideyktik nutqiy janrlar va hokazolar.

Epideyktik nutqiy janrlarni jo'shqin va sokin tantanali tarzda ifodalanishiga ko'ra jo'shqin va sokin epideyktik nutqiy janrlarga ajratish mumkin. Jo'shqin epideyktik nutqiy janrlarga tabrik, qadah so'zi, tilak, duo nutqiy janrlari misol bo'la oladi. Sokin epideyktik nutqiy janrlar guruhiga esa ta'ziya, hamdardlik bildirish kabilarni kiritish mumkin. Buni quyidagicha ifodalaymiz:



Epideyktik nutqiy janrlar matniy hajmiga ko'ra ham farqlanadi. Masalan, mikrohajmli, makroxajmli va giperxajmli epideyktik nutqiy janrlar.


Shuni aytish kerakki, giperxajmli nutqiy janrlar mikro va makroxajmli nutqiy janrlardan iborat bo'ladi. Masalan, rasmiy tabrik gipermatni kirish qismida murojaat nutqiy akti, asosiy qismida esa eslatma, maqtoov, e'tirof, kelajak ishlarga da'vat, yakuniy qismida esa duo, tilak, ya'shi niyat, ishonch bildirish kabilardan tashkil topishi mumkin. Ba'zan esa tabrik nutqiy janri ikki mikromatndan tashkil topib, bir makromatni, ya'ni tabrik mazmunli





mikromatn 1 Q tilak mazmunli mikromatn 2ni tashkil qilishi mumkin. Ko'p hollarda makromatn xajmida tabrik, qadah so'zi, hamdardlik bildirish kabi nutqiy janrlar hosil bo'ladi. Mikromatn xajmidagi epideyktik nutqiy janrlarga duo qadah so'zi kabilar misol bo'la oladi. Masalan, Jamoamizning eng aqlli ayoli uchun! kabi.

Epideyktik nutqiy janrlar og'zaki va yozma nutqda ifodalanishiga ko'ra ham farqlanadi. Masalan, qadah so'zi og'zaki shaklda ifodalanuvchi epideyktik nutqiy janrdir. Tabrik esa og'zaki va yozma shaklda ifodalanish imkoniyati mavjud epideyktik nutqiy janr sanaladi. Buni quyidagicha ifodalaymiz:



Epideyktik nutqiy janrlar tarkibida diniy xoslangan epideyktik nutqiy janrlar ham kuzatiladi. Bunday turlar ko'pincha diniy xarakter kasb etadi. Masalan, xristian diniga e'tiqod qiluvchi halqlarda muqaddas avliyolar kuni, cho'qintirish kuni, pasxa kuni, muqaddas uchlik kuni, unashtirish marosimi kabilardagi maxsus nutqlar vaqtida o'ziga xos diniy xarakterdagi epideyktik nutqiy janrlar yuzaga keladi.

**XULOSA.** Yuqoridagilarga asoslanib shuni aytish mumkinki, epideyktik nutqiy janrlar o'ziga xos turkum xususiyatlarga ega. Ularni lingvistik tadqiq qilish til tizimidagi semantik jihatdan shaxsni maqtash yoki kamchiligini ko'rsatishga yo'naltirilgan, jamoaviylik, tantanavorlilik, rituallik kabi xususiyatlariga ega nutqiy butunliklarni aniqlash zaruratini tug'diradi. Zero, til tizimida epideyktik xususiyatli nutqiy butunliklarni ijobiylik, salbiylik, rasmiylik, norasmiylik, jo'shqinlik, sokinlik, diniylik, shu bilan birga, matniy xajmiga ko'ra, og'zaki yoki yozma nutqda ifodalanishi kabi xususiyatlariga ko'ra ijobiy epideyktik nutqiy janrlar, salbiy epideyktik nutqiy janrlar, rasmiy epideyktik nutqiy janrlar, norasmiy epideyktik nutqiy janrlar, jo'shqin epideyktik nutqiy janrlar, sokin epideyktik nutqiy janrlar, mikrohajmli epideyktik nutqiy janrlar, makroxajmli epideyktik nutqiy janrlar, giperhajmli epideyktik nutqiy janrlar, og'zaki epideyktik nutqiy janrlar, yozma epideyktik nutqiy janrlar, diniy epideyktik nutqiy janrlar va diniy bo'lmagan epideyktik nutqiy janrlar



kabi subguruhlarga tasniflab o'rganish imkoniyati mavjud. Bu esa epideyktik nutqiy janrlar tizimining turkum xususiyatlarini lingvistik jihatdan yanada chuqurroq o'rganishni talab qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Шаталова, С. В. Эпидейктические жанры речи. диссер. филол. наук., М., 2009, М. Анджу. Содержательно-композиционные и стилистические особенности русской политической торжественной речи: на материале выступлений президентов РФ в 2000-2010 гг., диссер. филол. наук., 2012, с 233; Аннушкина Т. В. Поздравительная речь в разных сферах общения: содержание - композиция – стиль. 2016, с 213; Арипова А. Нутқ моҳиятини ташкил этувчи муҳим восита. “Scientific Progress”, Scientific Journal ISSN. 2181-1601, Volume 1, Issue 6, pp 243-264
2. Ш. Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т., Ўзбекистон, 2017, 592-бет
3. Mahalla haqida. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/mahalla-uz/>